

Og'abek Sobirov

"Likir-likir"

Visit "[Likir-likir](#)" on MotoLyrics.com

O'ylaganing sani hiylayu nayrang,
Ozorlaring jonim olar turfa rang,
Dardu sitamlardan boshlarim garang,
Nozik firog'ingdan asablar tarang,
Yondirdi likir-likirlaring - dod-alam!
Yor-a, dikir-dikirlaring - dod-alam!
Zimdan qarab qiqir-qiqir kularsan,
O'ldirdi saning makrlaring, dod-alam!

Raqib kelsa, qushdan oldin choparsan,
O'z yoringni zahring sochib boparsan,
Kelar bir kun badnom bo'lib el ichra,
Aytganim men - san xudodan toparsan!
Yondirdi likir-likirlaring - dod-alam!
Yor-a, dikir-dikirlaring - dod-alam!
Zimdan qarab qiqir-qiqir kularsan,
O'ldirdi saning makrlaring, dod-alam!

Oxiri qurib ketsin bevafoqliqing,
O'ynamay qiling anchay sabog'liqni,
Bir bora qo'l bersang bevafoqa gar,
Izlari ko'rinmas g'am-xafoliqning.
Yondirdi likir-likirlaring - dod-alam!
Yor-a, dikir-dikirlaring - dod-alam!
Zimdan qarab qiqir-qiqir kularsan,
O'ldirdi saning makrlaring, dod-alam!

Oshiq Erkin aytganini qilsakim,
Aslo kam bo'lmaydi bir umr hech kim,
Birov kulgan bo'lsakim sadoqatga,
Undayin bevafoadan man-da kechkim.
Yondirdi likir-likirlaring - dod-alam!
Yor-a, dikir-dikirlaring - dod-alam!
Zimdan qarab qiqir-qiqir kularsan,
O'ldirdi saning makrlaring, dod-alam!

Visit [Og'abek Sobiroy](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.

[MotoLyrics.com](#) | Lyrics, music videos, artist biographies, releases and more.